

O'QUVCHILARNI MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYALASHDA PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

Qalandarova Mohidil

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Maxmadiyorova Marjona

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. O'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy negizini, uning milliy ruhini umumbashariy qadriyatlar asosida mustahkamlash va rivojlantirish, milliy g'urur va o'zlikni anglash, jamiyatning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, axloq, ijtimoiy ong, milliy g'oya, mafkura, madaniyat, jamiyat, insoniylik, insoniylashtirish..

KIRISH

Jamiyatning ma'naviy kamoloti o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Har bir tuzum va davr ma'lum maqsad, g'oya va mafkuralar, talab va ehtiyojlar asosida kishilarning ma'naviy kamolotiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shunga asosan, inson tarbiyasining biror tizim, shakl va mazmuni, insoniyliги kelib chiqadi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy fazilatlari, ta'lim tarbiyaning yo'llari va usullariga kishilarning milliy jihatlari, yashash va mehnat qilish sharoitlari, turmush tarzi kabilar ham ta'sir etadi. Ayniqsa, ma'naviy qadriyatlarimizni chuqur bilish, uning uzviyligini ta'minlash, har bir yosh avlodning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz kerak.

Ma'lumki, jamiyatning keajagini qurishda o'zining katta hissasini qo'shuvchi insonlar o'qituvchilardir. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviyatini o'stirishga xizmat qiluvchi hamda ularning vatanga muhabbat ruhida tarbiyalovchi insonlar, hech shubhasiz, o'qituvchilardir. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida

tarbiyalashda avvalo milliy istiqlol mafkurasi muhim ahamiyatga ega. Ma'naviyat xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollari belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma'naviyat (arabcha "ma'naviyat"- ma'nolar majmui) Ma'naviyat - bu kishini, egallagan foydali bilimlari (bilim turidan qat'i nazar), uning hayotida takrorlanaverishi natijasida, ko'nikma va malaka bosqichlaridan o'tib ruhiga singib, uning hayot tarziga aylanib ketgan bosqichdagi ijobiy ijtimoiy sifatlardir. Demak, ma'naviyat asosini bilim tashkil qilar ekan, bilim turlariga mos ravishda ma'naviyat turlarini sanab chiqsak bo'ladi. Bularga diniy ma'naviyat, axloq va odob ma'naviyati, dunyoni ilmiy bilish ma'naviyati, texnik ma'naviyat, kasbiy ma'naviyat va boshqalar kiradi. Ma'naviyat inson madaniyatining ko'zgasidir. Madaniyat esa, quyidagicha ta'riflanadi: ("cultura" so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nolarini bildiradi)-ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Ma'rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi. Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma'naviyati yuksaladi.

ASOSIY QISM

Avvalambor, o'quvchilarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalash borasida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ma'naviyat tushunchasiga ta'rif berib, shunday degan edi: «Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men, avvalo, insonni ruhiy poklanishi va yuksalishiga davat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning imon irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman». Bu fikrni talqin qiladigan bo'lsak, undan shunday ma'no chiqadiki, eng avvalo, har bir mushohada qila oladigan shaxs o'zining haqiqiy inson ekanligini tushunib yetishi, ya'ni ongi rivojlanib borayotganligini fahmlashi, barcha tirik mavjudodlarga va insonlarga mehr muruvvatli bo'la olishi, milliy

qadriyatlarimizni tiklash va uni rivojlantirishga xizmat qila olishi tushuniladi.

Shak-shubhasiz, ma'naviyatli inson o'zi va o'zgalarga insoniy fazilatlarini singdira olishi, ma'naviy qadriyatlarni chuqur bilishi, yosh avlodga ularning davomiyligini ta'minlashga ko'mak berishi lozim. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida axloqiy odatlar alohida o'rinni egallaydi. Chuqur o'zlashtirilgan axloqiy me'yorlar bilan belgilanuvchi xatti-harakat odatning ma'naviy sababining barqaror ko'rsatkichidir. Shu o'rinda axloqqa ta'rif beradigan bo'lsak, axloq- ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero axloq, axloqiy me'yorsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Bu borada, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yashab ijod etgan ma'rifatparvar allomamiz Abdulla Avloniyning o'sha davrda, Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilib, quyidagicha ta'rif berganlar: «Tarbiya - bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir». Darhaqiqat, bugungi kunda o'z ta'lim- tarbiyasiga ega bo'lganlarni, ma'naviy -axloqiy tarbiyaning yuksak cho'qqisiga erishgan barkamol shaxs timsolida ko'rishimiz mumkin. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi:

- Birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, g'oyalar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish;

- Ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek, ijtimoiy ongni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga

talab qo'ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish;

Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, his -tuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Ma'lumki, tarbiya- yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat jamoat hamda ijtimoiy institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi. Aytish joizki, mahalla - ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, an'analar maskani, chunki qadimdan bayramlar, hayit kunlari, to'y-tantanalarda qo'ni-qo'shnilar, bemorlar, yolg'iz keksalarni sovg'a-salomlar bilan yo'qlash an'ana tusiga aylanib qolgan. O'quvchilarni ma'naviy -axloqiy tarbiyalashda xalq orasidan chiqqan g'oyalardan , asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan manbalardan foydalanish o'rinlidir. Xalq pedagogikasining sharqona an'analari, oilaviy-maishiy yo'nalishlari, o'ziga xosligi, ommaviy bayram- sayllar, marosimlar, urf-odatlar va udumlarda ifodalanishi o'sib kelayotgan yosh avlod tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi.

Folklorshunos olim S. Turayev ta'kidlashicha: "Xalq og'zaki ijodida hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi" .

Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodida inson qadr-qimmatini va sha'nini ulug'lovchi, ma'naviy kamolotini belgilovchi omillar, iymon-e'tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do'st-birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik sahifalari rang-barangdir. Bu sahifalarning har biri yosh avlod uchun odobnoma, ibratnoma deb baholanishga tamomila haqlidir. Jamiyatimizdagi yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirrali ekanligini unutmasligimiz kerak. Demak, qanday insonni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Bunda xalq og'zaki

ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni tarkib toptirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarni ko'proq yod g'oyalardan saqlash, ularni ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolishdan saqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ularning ongiga singdirish bilan ma'naviy axloqiy tarbiyada barkamol shaxsni voyaga yetkazish mumkin.

Buning uchun eng avvalo, bola tarbiyasida ijtimoiy muhit va ota - onaning tarbiyasi muhimdir. Zero, bola ota-onaning ko'z gusidir. Tarbiya jarayonida o'rnak-namuna metodidan foydalanish asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Ma'naviy -axloqiy tarbiyani o'quvchilarda shakllantirish ta'lim - tarbiya tizimida katta o'zgarishga sabab bo'ladi. Ularning ta'lim tizimida ko'plab yutuqlarga erishishiga, jamiyatda o'z o'rnini egallashiga katta yordam beradi. Shu sababli ham ma'naviyat va axloq bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I. A. Karimov " Istiqlol va ma'naviyat" T., 1994
2. "Ma'naviyat asoslari" (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasi) T., <<Fan va texnologiya>>, 2008
3. Лапп, Елена Александровна, Елена Викторовна Шипилова, and Акрам Рустамович Сохибов. "ПРОЕКТИРОВАНИЕ И СОПРОВОЖДЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МАРШРУТОВ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ: РАБОЧАЯ ПРОГРАММА КУРСА." АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. 2021.
4. Сохибов, Акрам Рустамович. "MODERN METHODOLOGICAL BASES OF HIGHER EDUCATION MANAGEMENT IN THE ERA OF DIGITISATION: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.018> Soxibov Akram Rustamovich

PhD Associate Professor of the Department of Pedagogy Karshi State University."

Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 10 (2022): 169-176.

5. Rustamovich, Sohobov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." *Academicia Globe* 2.6 (2021): 391-394.

6. Sokhibov, A. R. "SPIRITUAL AND MORAL TREASURES OF THE GREAT THINKERS OF THE EAST." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 1 (2020).

7. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.

8. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4(2024):296-304.

9. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 305-312.

10. Khaidarov S. MOTIVATION OF PEDAGOGICAL BACHELORATE GRADUATES FOR PROFESSIONAL TEACHING ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. В12. – С. 892-895.

11. Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогтики в узбекском народном традиции." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 286-291.